SHIFOKOR SO`ZI
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI NASHRI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI TASHKIL ETILGANINING 31 YILLIGI MUNOSABATI BILAN VATAN HIMOYACHILARIGA BAYRAM TABRIGI

Hurmatli askar va serjantlar, ofitser va generallar! Qurolli Kuchlarimiz xizmatchilari va faxriylari! Qadrli yurtdoshlar!

Sizlarni, sizlar orqali ko‘pmillatli butun xalqimizni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi va Vatan himoyachilari kuni bilan samimiy muborakbod etaman.

Ushbu quvonchli ayyomda o‘z hayotini ona yurt himoyasidek ulug‘ ishga bag‘ishlagan siz, azizlarga o‘zimning yuksak hurmat va ehtiromimni bildiraman.

Hech shubhasiz, mard va olijanob xalqimiz o‘zining muqaddas qasamyodiga hamisha sodiq bo‘lib, xizmat burchini yerda ham, ko‘kda ham sharaf bilan ado etayotgan sizlar kabi zabardast farzandlari – bahodir va dovyurak harbiylarimiz bilan haqli ravishda faxrlanadi.

Muhtaram do‘stlar!

So‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida milliy armiyamizning qiyofasi va salohiyati tubdan o‘zgardi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Qurolli Kuchlari mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini, sarhadlarimiz daxlsizligini ta’minlashga qodir bo‘lgan, harakatchan va puxta qurollangan qudratli kuchga aylandi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Dunyoda yuzaga kelgan hozirgi murakkab vaziyatda Vatanimiz mustaqilligi va suverenitetini, uning hududiy yaxlitligini ta’minlash, eng qimmatli boyligimiz – jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash naqadar muhim ahamiyatga ega ekanini barchamiz albatta chuqur anglaymiz.

Aynan shuning uchun ham biz 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasida yurtimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimizni rivojlantirishni ustuvor yo‘nalishlardan biri etib belgiladik.

Ushbu strategiya asosida Qurolli Kuchlarning tezkor boshqaruvini amalga oshirish, milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnikalar bilan ta’minlash hamda harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ko‘zda tutadigan qarorlar qabul qildik.

O‘tgan yili harbiy qismlarda ilk bor “Amir Temur jangovar bayrog‘i uchun” musobaqalar bo‘lib o‘tdi. Qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligini oshirish, harbiy an’analarni yanada mustahkamlash, buyuk ajdodlarimizga munosib mard va jasur, bilimli va jismonan baquvvat Vatan himoyachilarini tarbiyalashda ushbu musobaqalar beqiyos ahamiyatga ega.

Ayni vaqtda azmu shijoatli askarlarimiz xalqaro maydonlarda o‘tkazilayotgan ko‘plab nufuzli harbiy musobaqalarda ham faxrli o‘rinlarni egallab kelmoqda. Jumladan, O‘zbekiston harbiylari Xalqaro armiya o‘yinlari, “Kembriya patruli” va boshqa yirik harbiy-sport musobaqalarida bir necha yillardan buyon salmoqli yutuqlarni qo‘lga kiritayotgani barchamizni quvontiradi.

Yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bu borada o‘tgan yili mamlakatimiz bo‘ylab “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harakatini tashkil etganimiz hamda barcha umumta’lim maktablarida mazkur harakatning 20 mingdan ziyod o‘quvchi yoshlarni qamrab olgan guruhlari tuzilgani farzandlarimiz qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shayotganini ta’kidlash lozim.

Harbiy xizmatchilarning oila a’zolari hamda soha faxriylarini ijtimoiy himoya qilish masalasiga ham jiddiy ahamiyat berilmoqda. Faqat so‘nggi bir yilning o‘zida 3 mingdan ortiq harbiylar uy-joy bilan ta’minlandi, salkam 2 ming harbiy xizmatchilarning farzandlariga oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanomalar berildi, 4 mingdan ziyod harbiylarning turmush o‘rtoqlari kasbga o‘qitilib, ishga joylashtirildi, 1250 nafar harbiy pensionerning bandligi ta’minlandi.

Qadrli yurtdoshlar!

Bugungi kunda butun jahonda, jumladan, bizning mintaqamizda, bevosita chegaralarimiz yaqinida turli tahdid va xatarlar tobora kuchayib bormoqda.

Dunyoda ro‘y berayotgan gibrid xarakterdagi qurolli to‘qnashuvlar tahlili bizdan Qurolli Kuchlarimizning jangovar harakatlar jarayonida ilgari amalda qo‘llanilmagan qurollardan foydalanadigan kuchlarga qarshi kurasha olish qobiliyatini oshirishni taqozo etmoqda.

Bunday sharoitda, avvalo, jangovar harakatlarning samarali shakl va usullarini tadqiq va tatbiq etish, Qurolli Kuchlarning yagona avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yaratish va rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish borasidagi ishlarni jadallashtirishimiz lozim.

Mamlakatimiz hududlarining operativ jihozlanishini ta’minlash, hududiy mudofaa va fuqaro muhofazasi tizimini takomillashtirish hamda davlat organlari barcha subyektlarining favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha tayyorgarlik darajasini kuchaytirish muhim vazifadir.

Mudofaa sanoatini tizimli rivojlantirish, uchuvchisiz uchish apparatlari, zirhli avtomashinalar kompleksini takomillashtirish ishlari ham faoliyatimizning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, quyi pog‘onalardagi bo‘linmalarning axborot-psixologik ta’sirlarga bardosh bera olish qobiliyatini oshirishga qaratilgan tayyorgarlik ishlarini doimiy yo‘lga qo‘yish zarur.

Ma’lumki, biz 2023 yilni mamlakatimizda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb e’lon qildik.

Shu maqsadda harbiy qismlarda shaxsiy tarkibning jangovar tayyorgarligini, bilim va malakasi, dunyoqarashini yuksaltirish, ularning kasbiy va madaniy qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash masalalariga muhim ahamiyat beriladi.

Harbiy xizmatchilar va soha faxriylarini, ularning oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, moddiy va tibbiy ta’minotini yaxshilash, hududlarimizda harbiylar uchun uzoq muddatli, imtiyozli kreditlar asosida ko‘p qavatli uy-joylar barpo etish bundan buyon ham oldimizdagi muhim va ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Bugungi qutlug‘ ayyomda bir fikrni alohida ta’kidlab aytmoqchiman: harbiy-jangovar salohiyat va yuksak ma’naviy salohiyat O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchiga aylanishi zarur. Shonli tariximiz, buyuk ajdodlarimiz, yengilmas sarkardalarimiz jasorati, ularning “Bilagi zo‘r – birni yengar, ongi va yuragi zo‘r esa – mingni” degan dono o‘gitlari bizga aynan mana shunday hayotiy haqiqatni uqtiradi.

Shu ma’noda, harbiy ta’lim va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida, milliy o‘zligimiz, ezgu qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirish barchamizning eng muhim vazifamizdir.

O‘tgan yili uzluksiz harbiy ta’lim tizimini jahon standartlari darajasiga olib chiqish borasida jiddiy qadamlar tashlandi.

Qurolli Kuchlar akademiyasi isloh qilinib, kelgusida uning harbiy ilm-fan sohasi lokomotiviga aylanishi uchun mustahkam zamin yaratildi. Endilikda oliy harbiy ta’lim muassasalarida ham yangicha yondashuv va o‘quv uslublari joriy etiladi.

Navqiron avlodimizni bugungi axborot makonida mavjud tahdidlardan himoya qilish, ularda yot va zararli g‘oyalarga qarshi barqaror immunitetni shakllantirish maqsadida davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda yoshlar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi amaliy ishlarimiz samaradorligini oshirishimiz zarur.

Tabiiyki, ushbu vazifalarni bajarishda “Xalq va armiya – bir tanu bir jondir!” degan tamoyildan kelib chiqib, harbiy-ma’muriy sektorlar va keng jamoatchilikning ishtirokini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Hurmatli askar va serjantlar, ofitser va generallar, Qurolli Kuchlarimiz xizmatchilari va faxriylari!

Bugungi shonli ayyomda mamlakatimiz tinchligi va xavfsizligi yo‘lidagi fidokorona xizmatlaringiz uchun barchangizga o‘z nomimdan, butun xalqimiz nomidan chuqur minnatdorlik bildiraman. Siz, azizlarni, sizlar orqali oila a’zolaringizni Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 31 yilligi va Vatan himoyachilari kuni bilan yana bir bor chin qalbimdan tabriklayman.

Barchangizga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt, olijanob va mas’uliyatli xizmat vazifangizda ulkan zafarlar tilayman. Kuch-g‘ayratingiz, sha’nu sharafingiz yanada ziyoda bo‘lsin!

El-yurtimizning yuksak mehri va ishonchi sizlarga doimo yor bo‘lsin!

Shavkat MIRZIYOEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni

PREZIDENT HARBIY TIBBIYOT MUASSASALARINI BORIB KO‘RDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 13-yanvar kuni Mudofaa vazirligining Markaziy harbiy klinik gospitalini borib ko‘rdi.

Ilgari bu shifoxonaning binolari ham, ish uslubi ham eski edi. Davlatimiz rahbari 2018-yilda bu yerga kelib, uni rekonstruksiya qilish va zamonaviy jihozlash bo‘yicha topshiriqlar bergan edi. Shu asosida katta hajmdagi qurilish-ta’mirlash ishlari bajarildi. Tibbiy uskuna va jihozlar yangilandi. Boshqaruvda klinik menejment joriy etildi.

Gospital jami 700 o‘ringa mo‘ljallangan bo‘lib, bu yerda harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolari, soha faxriylari bepul davolanadi. Shuningdek, boshqa bemorlarga ham pullik xizmat ko‘rsatiladi. Buning uchun 286 xil diagnostik tekshiruv, 600 dan ortiq amaliyotlar yo‘lga qo‘yilgan, 30 ga yaqin ixtisoslashgan bo‘limlar tashkil etilgan.

Xususan, jarrohlik bo‘limlari uchun 8 qavatli yangi bino barpo etilgan. Davlatimiz rahbari undagi sharoitlar bilan tanishdi. Bunday shifoxonalarni hududlarda ham tashkil etish zarurligi ta’kidlandi. Harbiylardan tashqari sportchilar va ayollarni davolash bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Ta’lim bilan amaliyot bog‘liqligi ham samarali yo‘lga qo‘yilgan. Ilgari bunday mutaxassislar Toshkent tibbiyot akademiyasining Harbiy tibbiyot fakultetida tayyorlanar edi. Prezidentimizning 2020-yil 22-oktabrdagi “Harbiy tibbiyot sohasida kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, mazkur fakultet negizida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasi tuzildi.

Ahamiyatlisi, ushbu ta’lim maskani Markaziy harbiy klinik gospital yonida qurildi. Prezident bu yerdagi sharoitlarni ham ko‘zdan kechirdi.

Akademiya 250 nafar talaba va tinglovchiga mo‘ljallangan. Bu yerda bo‘lajak harbiy shifokorlar o‘qitiladi hamda tibbiyot xodimlari qayta tayyorlanadi. O‘quv binosida 2 ta fakultet, 5 ta kafedra, 2 ta markaz, institut va ma’muriyat joylashgan. Xonalarda o‘quv va mashg‘ulotlar uchun barcha sharoit yaratilgan. 186 o‘rinli yotoqxona ham bor.

Davlatimiz rahbari akademiyadagi ta’limning mazmuniga alohida ahamiyat qaratdi.

– Bino va sharoitlar yaxshi, lekin bu ishning boshlanishi. Endi asosiysi harbiy tibbiyotning mazmunini, mohiyatini tushunib, o‘qishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish kerak. Buning uchun xorij tajribasi asosida pedagogik, ilmiy va amaliy tizim yaratish zarur. Bu tizim boshqa tibbiyot oliy o‘quv yurtlariga muqobil va raqobatchi, bitiruvchilar o‘z yo‘nalishi bo‘yicha namuna bo‘lishi kerak, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Akademiyada xorijiy boshqaruvni joriy etish, ilk bitiruvchilarni Turkiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarga malaka oshirishga yuborish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

UNIVERSITET REKTORI XORIJLIK TALABALAR BILAN UCHRASHUV O‘TKAZDI

Universitetning Katta majlislar zalida Xalqaro ta’lim fakultetida tahsil oladigan xorijlik talabalar bilan universitet rektori J.Rizayevning ochiq muloqoti o‘tkazildi. Uchrashuvda xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor Z.Aminov, xalqaro ta’lim fakulteti dekanati xodimlari, xorijlik ta’lim kompaniyalarining vakillari va 1-3 bosqich talabalari ishtirok etdilar.

Rektor J.Rizayev talabalarga murojaatida xorijlik talabalarga yaratilayotgan ta’lim olishlari, yashashi va bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, shu jumladan universitet axborot-resurs markazi kutubxonasini muntazam

ravishda ingliz tilidagi adabiyotlar bilan boyitish jarayoni, o‘quv jarayoniga xorijdan malakali mutaxassislarni jalb qilish, mahalliy professor-o‘qituvchilarini ingliz tili bo‘yicha bilimlarini oshirish, talabalar turar joyida bo‘layotgan o‘zgarishlar haqida batafsil gapirib berdi. Shuningdek, xorijiy talabalarni malakali shifokorlar sifatida shakllanishlari uchun amaliyot zarurligi, mahalliy aholi bilan bo‘lib o‘tadigan tibbiy ko‘riklarda qiyinchilikda duch kelmasliklari maqsadida o‘zbek tilini o‘rganish bo‘yicha amaliy kurslarni tashkil etish lozimligi, mamlakatimiz qonunlariga rioya etish zarurligi haqida ta’kidlandi.

Uchrashuv samimiy muloqot tarzida olib borildi. Chiqish qilgan talabalar o‘z so‘zlarida Universitet ma’muriyatiga yaratilgan imkoniyatlar uchun o‘z minnatdorchiliklarni bildirdilar. Barcha qilingan takliflar bo‘yicha rektor tomonidan mas’ullarga topshiriqlar berildi.

Ishtirokchilar barcha qiziqtirgan savollariga batafsil javoblarni oldilar.

TOSHKENT, SAMARQAND VA FARG‘ONADA SINGAPUR TAJRIBASI ASOSIDA AYOLLAR REPRODUKTIV SALOMATLIGI MARKAZLARI

“ Mamlakatimiz rahbarining Singapurga davlat tashrifi asnosida sog‘liqni saqlash sohasi bo‘yicha erishilgan kelishuvlar orasida yurtimizda ilg‘or tibbiyot muassasalari tashkil etishga doir qo‘shma loyiha ham bor, — dedi O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vaziri Amrillo Inoyatov.

Xususan, davlatimiz rahbari topshirig‘iga ko‘ra, mamlakatimizda ayollar salomatligini yanada mustahkamlash, sog‘lom bolalarni dunyoga keltirish, nogironlikning oldini olish maqsadida “Virtus Health Singapore Pte., Ltd.” kompaniyasi bilan “Ayollar reproduktiv salomatligi: bepushtlikning oldini olish, genetik laboratoriyani rivojlantirish, sun’iy homiladorlik” markazlarini ochish bo‘yicha istiqbolli loyihani amalga oshiramiz.

Mazkur kompaniya 2002-yili Avstraliyada tashkil etilgan bo‘lib, reproduktiv salomatlik xizmatlari ko‘rsatish ko‘lami bo‘yicha dunyoda 4-o‘rinda turadi. Buyuk Britaniya, Irlandiya, Daniya va Singapurda 7 ta shifoxonasi, 44 ta reproduktiv salomatlik klinikasi va 54 ta laboratoriya markazi mavjud.

Ayni paytda yurtimizda bepushtlikdan aziyat chekayotgan oilalar kam emasligi va ularning aksariyati yosh kelin-kuyovlar ekanligini inobatga olsak, bunday muassasalarga O‘zbekistonda ham ehtiyoj katta ekanligi ayon bo‘ladi.

Shu bois qo‘shma loyiha doirasida kelgusida Toshkent shahar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi, Samarqand va Farg‘ona viloyatlari Perinatal muassasalari qoshida ushbu xorijiy kompaniya tajribasi asosida ayollar reproduktiv salomatligi bo‘yicha markazlar faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Ularda bepushtlikning oldini olish, genetik laboratoriyani rivojlantirish, sun’iy homiladorlik yo‘nalishlari bo‘yicha xotin-qizlarga yuqori sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatilishi rejalashtirilgan.

Sog‘liqni Saqlash Vazirligi matbuot xizmati.

BUYUKLIKKA DAHLDOR USTOZ - Saidjalol Mahmudovich Bahromov 85 yoshda

So‘z “buyuklik” haqida borar ekan, avvalambor asrlar davomida taniqli bo‘lgan, dunyoda fanning taraqqiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan va tan olingan, tarixda chuqur iz qoldirgan, chin insoniylik xislatlariga ega bo‘lgan, jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan olimlardan biri ustoz - tibbiyot fanlari doktori, Rossiya tibbiyot fanlari Akademiyasining akademigi, Nyu-York Akademiyasi a’zosi, Qirg‘iziston Respublikasi Tibbiyot Akademiyasi faxriy professori, Qirg‘iziston Milliy Akademiyasining akademigi, O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi a’zosi, Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti Gematologiya kafedrasining professori Saidjalol Mahmudovich Bahromovni “Buyuklikka dahldor inson” sifatida ta’riflashga barcha asoslar bor.

Darhaqiqat, Saidjalol Bahromov nafaqat akademik va professor, balki, O‘zbekistonda gematologiya va transfuziologiya taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan olim, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan vrach, “Hurmat belgisi” ordeni sohibi, tajribali vrach, ajoyib ustoz, namunali ota, yoshlar murabbiysi, faylasuf va ensiklopedik olim hamdir.

S.Bahromov 1938-yil 22-yanvarida Toshkent viloyati Oqqo‘rg‘on tumanida tug‘ilgan. Mehnat faoliyatini Toshkent tibbiyot instituti Davolash fakultetini 1962-yilda tamomlab, Oqqo‘rg‘on tumanida vrach-terapevt-infeksionist, Markaziy shifoxona bosh vrachi o‘rinbosari lavozimlarida ishlagan. 1964-1968 yillarda O‘zbekiston SSV Gematologiya va qon quyish Ilmiy-tekshirish institutida aspiranturada o‘qib, “O‘tkir leykozlarda autoimmun jarayonlar” mavzusidagi dissertatsiyani yoqlab fan nomzodi sharafiga muyassar bo‘ldi. U 1969-1970 yillarda Oqqo‘rg‘on tuman Markaziy shifoxona terapiya bo‘limi mudiri, bosh vrach o‘rinbosari, bosh vrach, 1970-yilda Gematologiya va qon quyish ITIning gematologiya klinikasida ilmiy rahbar, institut direktorining ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, 1982-1984 yillarda O‘z SSV Ilmiy Kengashi raisi o‘rinbosari, 1984-1985 yillarda Sog‘liqni saqlash vaziri o‘rinbosari, 1985-1991 yillarda Sog‘liqni saqlash vaziri kabi lavozimlarda faoliyat ko‘rsatgan.

Saidjalol Bahromov 6 nafar fan doktori va 40 nafar fan nomzodlarini yetishib chiqishiga o‘z salmoqli ulushini qo‘shdi. Uning 450 ga yaqin chop etilgan (O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, Rossiya, AQSH, Germaniya, Turkiya, Isroil, Malayziya va boshqalarda), 20 dan ziyod katta asarlari (vrachlar uchun qo‘llanmalar va monografiyalar) hamda 10 ga yaqin ixtirolari mavjud. Noyob qon ilmi – klinik gematologiya fani bo‘yicha 6 nafar fan doktori va 12 nafar fan nomzodini tayyorlab, O‘zbekistonda gematolog-olimlar maktabini yaratgan.

S.Bahromov doimo jamoat ishlarida faol qatnashib kelmoqda. Bu borada uning rahbarligida: O‘zbekiston gematolog va transfuziologlari Assotsiatsiyasi tashkil etilib, uni uzoq yillar boshqardi. Hozirda u ushbu Assotsia¬siyaning faxriy raisidir; O‘zbekiston Oliy Kengashiga deputat etib saylanib, hayrli ishlarda faol qatnashgan; “Shifo-info” gazetasi hay’ati raisi, bir necha Respublika hamda xorijiy mamlakatlarning nufuzli jurnallarida hay’at a’zosi sifatida ishtirok etib kelmoqda. S.Bahromov qayerda va qaysi lavozimda ishlamasin, u el-yurtga sadoqatli shifokor, olim, tashkilotchi bo‘lib qolmoqda.

O‘zimning shaxsiy ko‘p yillik tajribalarim asosida fikrimni bildirar ekanman, chinakam inson uchun

qanchalik olijanob xislatlar kerak bo‘lsa, ustoz Saidjalol Mahmudovichda shunchalik xislatlar borligini, uning xatti-harakatlari, nigohi, o‘zini har qanday holatla tuta bilishi, so‘z ustaligi, tashqi ko‘rinishi, bilim doirasi, tibbiy bilimlardan tashqari tarixni chuqur idrok qilishlari tahsinga sazovor. Shuning uchun ham shogird sifatida men ustozim bilan ham g‘ururlanaman, ham faxrlanaman va haqiqatda buyuklikka dahldor insonligini baralla aytgan holda ustozni 85 yillik yubileyi bilan chin qalbimizdan muborakbod etib, uzoq umr, mustahkam sog‘lik, ijodiy barkamollik tilab qolamiz.

Saydullo Rasulov – tibbiyot fanlari doktori, Xalqaro Fan va San’at akademiyasi muxbir a’zosi, Turon FA haqiqiy a’zosi (akademigi).

Buyuk alloma, tibbiyot ilmining asoschisi Abu Ali Ibn Sino tavalludiga 1035 yil to‘ldi. Abu Ali Ibn Sino o‘z zamonasi va undan uzoq davrlarda ham fanning turli yo‘nalishlarining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk allomadir. Ibn Sinoning hayoti va ijodi, u qoldirgan nihoyatda boy meros mana 1000 yildan ortiq davrda insoniyatni hayratga solib kelmoqda. Bu siymo o‘zining aql-zakovati bilan jahon sivilizatsiyasiga katta ta’sir qila olgan, 2-3 ta ulkan siymolar qatoridan haqli ravishda o‘rin olgan.

IBN SINO VA HOZIRGI ZAMON TIBBIYOT FANI

U buyuk iste’dod, mehnatsevarlik va kuchli xotira egasi edi. “Mehnat men uchun hayotdir” deb ta’kidlagan edi Ibn Sino. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish borasida katta yutuqlarga erishilayotgan ushbu davrda bu buyuk allomaning hayoti va ijodiga yanada chuqurroq yondashish, uni o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ibn Sinoning tibbiyotga tegishli asarlari 60 dan ziyod bo‘lib, uning 20 tasi bizgacha yetib kelgan. Bu asarlar 20 dan ortiq nazariy va klinik fanlarni o‘z ichiga olgan. Ammo, uning tibbiyot sohasiga oid faqat bitta “Tib qonunlari” asarining o‘zi unga jahonshumul shuhrat va obro‘ keltirdi, uning nomini asrlar osha abadiy bitib qo‘ydi. Olimlarning ta’kidlashiga ko‘ra, uning “Tib qonunlari” asari ko‘plab Yevropa mamlakatlari tillariga tarjima qilingan va XI asr davomida tibbiyot o‘quv darsligi hisoblangan. Ibn Sino ta’kidlashicha, “Tibbiyot-inson tanasini o‘rganuvchi fan, chunki u sog‘lom yoki uni yo‘qotgan bo‘lsa, uni saqlash va o‘z holiga qaytarish bilan shug‘ullanishi lozim”.

> “ «Inson tanasi sog‘lom bo‘lishi uchun yurak issiq, asablar sovuq va suyaklar quruq bo‘lishi kerak»
>
> Abu Ali ibn Sino.

“Inson tanasi sog‘lom bo‘lishi uchun yurak issiq, asablar sovuq va suyaklar quruq bo‘lishi kerak” deb hisoblaydi Ibn Sino. Tabiat bergan noyob iste’dod, o‘ta chuqur xotira, oliy darajada rivojlangan sezgi organlari, miyaning hech xatosiz anatomik-sintetik qobiliyati, bilimga chanqoqlik, moddiy boyliklarga befarqlik, o‘ta mehnatsevarlik, o‘z fikri xulosalariga ishonch - Ibn Sinoning nomini jahon fanining yirik namoyandasiga aylantirdi. Hozirgi zamon tibbiyot fani nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak Abu Ali Ibn Sinoning bolalarni ona suti bilan oziqlantirishga qaratilgan fikr-mulohazalari XXI asrda ham dolzarb masala ekanligiga amin bo‘lamiz.

Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, sun’iy ovqatlantirilgan bolalarga qaraganda faqatgina ona suti bilan ovqatlantirish bolalarning turli xil kasalliklarga chalinishini 2, 5-3 barobar, hayotining birinchi 6 oyi davomida diareyadan o‘lim xavfi 25 barobar kam ekanligi aniqlangan.

Bu borada jahon fani, xususan tabobat ilmi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan vatandoshimiz Abu Ali Ibn Sinoning sharq tabobatining eng mo‘tabar qomusi hisoblangan “Tib Qonunlari” da quyidagicha ma’lumotlar berilgan:

Bolani ovqatlantirishda mumkin qadar onasining suti bilan boqish kerak. Chunki bola ona qornidaligi vaqtida plasentar qon aylanish tizimi orqali ona organizmida kerakli ozuqa moddalarini olib rivojlanadi va tashqi hayotga moslashuv jarayonida buning ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun bola ona sutini tezroq qabul qiladi va unga odatlanadi. Bola ona suti bilan oziqlanganda turli azoblanuvchi hollardan saqlanishiga juda foydalidir. Ibn Sino ta’limotida ona suti bilan tabiiy ovqatlantirish prinsiplari keng talqin qilingan. Ibn Sino ona sutini mo‘jiza deb atagan, ona suti bilan boqish bola hayotini ko‘p hollarda saqlab qoladi hozirgi davrda jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra har yili dunyoda 10 milliondan ko‘proq chaqaloq halok bo‘ladi, agar ular ona suti bilan boqilganda edi, 6 million chaqaloqning hayoti saqlanib qolishi mumkin edi. Bundan tashqari ilmiy izlanishlarda shu narsa aniqlanganki, boshqa sutlar bilan ovqatlangan bolalarga nisbatan taomga bo‘lgan allergiya 3.9 barobar kam uchraydi.

Ibn Sinoning fikricha ko‘krak suti bilan emizishning afzalliklari quyidagicha e’tirof qilingan: ona suti to‘laqonli ozuqa, u yengil hazm bo‘ladi va har xil yuqumli kasalliklardan himoya qiladi. Shu bilan birga ko‘krak suti bilan emizish hissiy bog‘lanishni ta’minlaydi, onani istalmagan homiladorlikdan saqlaydi. Ko‘krak suti bilan emizish onaning sog‘lig‘ini har tomonlama himoya qilib, oilasiga hissiy va iqtisodiy yordam beradi. Hozigi zamonda tibbiyot fanining rivojlanishi ham ko‘krak suti bilan emizishning afzalliklarini ta’kidlab, quyidagilarni tavsiya etadi:

Bola tug‘ilgandan keyin dastlabki 30-60 daqiqa ichida ko‘krakga qo‘yish;

Bolani 6 – oylikgacha faqat ko‘krak suti bilan emizish;

Hamma bolalarga 6 – oyligidan boshlab qo‘shimcha ovqat berishni tashkil qilish;

Ko‘krak bilan emizishni 2 yoshgacha va undan ortiqroq davom ettirish;

Abu Ali Ibn Sino 1000 yil avval ko‘krak suti bilan emizishning afzalliklarini nimada ekanligini to‘g‘ri va ilmiy talqin qilgan, bu mavzu shu kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda va bu yosh olimlar tomonidan qayta-qayta qiziqib o‘rganilmoqda.

Feruza Mamatqulova,
2-Pediatriya kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Shoira Ibatova,
Bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrasi dotsenti.

UNIVERSITETDA “YOSHLAR TURIZMI HAFTALIGI” O‘TKAZILDI

Universitet professor-o‘qituvchilar va talabalar yoshlar uchun ta’til vaqtida mavsumiy imtiyozli turistik paketlari asosida Samarqand shahrining diqqatga sazovor joylariga sayohatlarini tashkil etish, nogironligi bo‘lgan talabalarning sayohat qilishi uchun barcha zarur tashkiliy va amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

4-yanvar kuni Universitetning faol talabalari hamda kam ta’minlangan oila farzandlari uchun Samarqandning diqqatga sazovor joylariga sayohat tashkil etildi. Samarqandning noyob me’moriy obidalari va barpo etilgan madaniy-ma’rifiy inshootlar, sayilgohlar va shaharda qad ko‘tarayotgan binolarni tomosha qilar ekan, ko‘hna va hamisha navqiron shahar deya ta’rif beriladigan Samarqandning o‘tmishi qanchalik buyukligidan, keyingi yillarda bu yerda amalga oshirilgan o‘zgarishlar uning shuhratini yanada oshganligiga guvoh bo‘ldilar. Asosiysi, tarixi boy, kelajagi buyuk O‘zbekistonimizning farzandi, yuksak aql-zakovati va bunyodkorlik salohiyati bilan dunyoga mashhur ajdodlarning vorisi ekanligidan faxrlandilar.

Sayohat davomida talaba yoshlar navqiron Samarqandning qadimiy tarixi va mustaqillik yillarida barpo etilgan bunyodkorlik majmualari to‘g‘risida katta taassurotlarga ega bo‘ldilar.

Shuningdek 5-6-yanvar kunlari “Yoshlar turizm haftaligi” doirasida universitet talabalari uchun Samarqandning diqqatga sazovor joylariga sayohat tashkil etildi.

Talabalar sayohat davomida Amir Temur maqbarasi, Registon maydoni, Amir Temur jome masjidi (Bibi-Xonim), O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov qabri va Shohi-Zinda majmuasiga tashrif buyurdilar.

Talaba-yoshlar Samarqandning shahrining qadimiy tarixi va madaniyati, mustaqillik yillarida bunyodkorlik ishlari haqida qiziqarli ma’lumotlarga hamda katta taassurotga ega bo‘ldilar.

TALABALAR «MA’RIFAT MAYDONI»DA KUCH SINASHDILAR

Universitet talabalari o‘rtasida “Ma’rifat maydoni” tanlovi tashkil etildi.

Tanlovdan ko‘zlangan maqsad – talaba-yoshlarni kitob va adabiyotga hamda san’atga qiziqishlarini oshirish shuningdek, yoshlarni ma’rifatparvarlik ruhida kamol toptirishdan iborat. Bo‘lib o‘tgan tanlov Tibbiy profilaktika, Jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakulteti talabalari o‘rtasida o‘tkazildi.

Tanlovda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, filologiya fanlari nomzodi, “Ulug‘bek Vorislari” gazetasi bosh muharriri Jumagul Suvonova, SamDTU ARM direktori D.Mansurova, tillar kafedrasi assistenti N.Sharipova, N.Butayevalar ishtirok etib talablar bilimini baholab bordilar. Yoshlar orasida atoqli ma’rifatparvar adiblarimizning boy ijodiy va ilmiy merosini keng targ‘ib qilish, ularning davlatimiz tarixi hamda adabiyotiga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida tashkil etilgan tanlovda talaba yoshlar faol ishtirok etib o‘zlarining bilimlarini namoyon etdilar.

Qiziqarli va munozarali kechgan tanlovda yuqori ballarni qo‘lga kiritgan jamoalar taqdirlandilar.

MENING YURTIM JANNATMAKON!

Go‘zaldir tinchdir erta tonglari
Turganingda quyosh charaqlar
Bordir sokin kechalari
Osmonga boqsang yulduz yaraqlar

* * *

Go‘zaldir har bir shaharlari
Sayyohlarni rom eta olgan
Bordir ajoyib hunarlari
Insonlarni lol eta olgan

* * *

Go‘zaldir har bir fasllari
Tabiatni yashnata olgan
An’analardan bordir asllari
Milliyligimiz ko’rsata olgan

* * *

Go‘zaldir har bir she’rlari
Xalq ko‘ngliga hush yoqqan
Bordir hozir ham Alisherlari
Bir qalam ila qalbga o‘t yoqqan

* * *

Mening yurtim go‘zaldir betakror
Dunyoda yagona bir makon
Bu davlatda hamisha adolat hukmron
Mening yurtim jannatmakon!

Ruxsora Sultonboyeva,
Pediatriya fakulteti,
204-guruh talabasi

TALABALIK - BAXTIMIZ, UNIVERSITET - FAXRIMIZ!!!

Sharqimiz gavhari bo‘lgan Samarqand,
Bilim dargohimiz joylashgan maskan.
Talaba gul bo‘lsa, ustozlar gulband,
Tibbiyot gulzorin undirib bergan.

O‘rta Osiyoda ko‘hna oliygoh,
Asr osha tarixiy merosga ega.
Ajdodlar ruhi qo’llaydi har chog‘
Shifokor yoshlarmiz faxrimiz dilda!

Ko‘ngilning sofligi libosida jam,
Qalbingiz quyoshi bo‘lguvchi malham.
Oq kiyimli oppoq misli farishta,
Shifo nuri ila qilar xotirjam.

Ona yurt, xalqimga doim xizmatda,
Katta mas’uliyat burchimiz og‘ir.
Kelajak sog‘ligi bizning mehnatda,
Yelkamizda yurtboshim ishonchi axir!

Muxlisa Xazratqulova,
Pediatriya fakulteti
418-guruh talabasi

SEMIZLIK IJTIMOIY MUAMMO SIFATIDA

Semizlik - dunyodagi eng keng tarqalgan surunkali kasalliklardan biridir. Hozirda sayyoramizning har to‘rtinchi aholisi ortiqcha vazn yoki semizlikdan aziyat chekadi. Barcha mamlakatlarda kattalar va bolalar populyatsiyasi orasida semirib ketgan bemorlar sonining tobora ko‘payib borishi kuzatilmoqda.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti semirishni XXI asr epidemiyasi deb tan oldi. Epidemiologlarning bashoratlariga ko‘ra, 2025-yilga kelib erkaklarning 40% va ayollarning 50% semizlikdan aziyat chekishi kutilmoqda.

Sayyoramiz bo‘ylab semizlikning tarqalishi bilan birga, unga bog‘liq bo‘lgan og‘ir somatik kasalliklar ko‘payib boradi va og‘irlashadi - diabetning ikkinchi tipi, arterial gipertenziya, yurak ishemik kasalligi, onkologik kasalliklar va boshqalar, bu hayot sifatining yomonlashishiga, erta nogironlik va bevaqt o‘limga olib keladi.

Ammo klinik amaliyotda ortiqcha vazn fonida rivojlanadigan kasalliklarning paydo bo‘lishida, kechishida va davolashda semizlikning salbiy ta’siri ko‘pincha yetarlicha baholanmaydi. Asoratlangan semizlik bilan og‘rigan bemorlargagina odatda tibbiy yordam ko‘rsatiladi, bemorlarga asoratlar rivojlanishidan oldin tana vaznini kamaytirish va asoratlarni oldini olish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri davo choralari yetarlicha o‘tkazilmaydi.

Semirish organizmda ortiqcha yog‘larning yig‘ilishidir. Semizlik mustaqil kasallik yoki turli xil kasalliklar fonida paydo bo‘ladigan sindrom sifatida qaralishi mumkin (ikkinchi holda, asosiy kasallikni davolash yoki kompensatsiyadan keyin ortiqcha tana vaznidan xalos bo‘lish mumkin).

Ortiqcha vaznning inson salomatligiga salbiy ta’siri Gippokrat davridan beri ma’lum bo‘lib, u o‘z vaqtida «To‘satdan o‘lim ozg‘in kishilarga emas, ko‘proq semizligi borlar uchun xos» aforizmini keltirib o‘tgan edi.

So‘nggi yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, semizlik yurak ishemik kasalligi (YuIK) va arterial gipertenziya (AG) rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq.

Ortiqcha tana vazn qon zardobida umumiy xolesterin, zichligi past lipoprotein (ZPLP) va zichligi juda past lipoprotein (ZJPL) darajasining oshishi bilan xarakterlanadi.

Semizligi bor odamlarda xolesterin (XS) ishlab chiqarish har bir ortiqcha kilogramm yog‘ uchun o‘rtacha 20 mg ga ko‘payishi aniqlangan. Har 4,5 kg tana vazniga sistolik qon bosimi (SQB) ko‘rsatkichlari 4,5 mm Hg ga oshishi aniqlangan.

Ortiqcha vazn insulinga rezistentlikning rivojlanishi (IR) va kompensator giperinsulinemiyaga (GI) olib keladi.

Semizlik 2-tip qandli diabet rivojlanishi uchun eng kuchli xavf omilidir; qandli diabet - 2-tipi bilan kasallangan bemorlarning 90% da semizlik mavjud.

Semizlikning xavfli va deyarli muqarrar hamrohi bu obstruktiv uyqudagi apne sindromidir (OUAS), shuningdek semizlik tufayli artroz, yug‘on ichak va o‘t pufagi saratonini uchrash chastotasi ham oshib bormoqda.

Ayollarda semirish anovulyatsiyaning yuqori chastotasi, hayz davrining buzilishi, bepushtlik, giperplaziya va jinsiy gormonlar ishlab chiqarilishining buzilishi bilan bog‘liq endometriyal polipoz bilan birga, shuningdek, bachadon bo‘yni, tuxumdonlar va sut bezlarining endometriyal saratonini rivojlanish xavfini ham oshishiga sabab bo‘ladi.

Shunday qilib, bugungi kunda semirish muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda, chunki u salbiy ijtimoiy-iqtisodiy va tibbiy oqibatlarga olib keladi. Semirib ketish va unga hamroh bo‘lgan kasalliklar bemorlarning ijtimoiy moslashuvi va mehnat qobiliyatini, sifatini pasayishiga, umr ko‘rish davomiyligini kamayishiga olib keladi. Shu munosabat bilan, semirishning oldini olish va davolashda ikkita usulning kombinatsiyasiga ustunlik berish kerak: ratsional ovqatlanish va jismoniy faollikni oshirish. Umumiy amaliyot shifokorlari va profilaktika tibbiyotining vazifasi aholiga oziq ovqat iste’mol qilish madaniyatini o‘rgatish, ratsional ovqatlanishning arzonligi va katta moliyaviy sarmoyalarni talab qilmasligini tushuntirishdan iborat. Semizlik muammosini chuqur o‘rganish va yoritish, gigiyena tarbiyasi, mehnat va dam olishni optimal tashkil etish, yetarlicha uyqu, toza havoda bo‘lish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, zarur. Bu vazifa, ayniqsa, semizlik fonida eng og‘ir asoratlar va o‘lim darajasi yuqori bo‘lgan COVID-19 pandemiyasi sharoitida dolzarb bo‘lib qoladi.

Lilya Garifulina,
Pediatriya kafedrasi mudiri
Zilola Xolmuradova,
assistent

14-YANVAR – VATAN HIMOYACHILARI KUNI

“14-yanvar yurtimizda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 31 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan o‘tkazilgan “Vatanparvarlik oyligi” doirasida Samarqand davlat tibbiyot universitetining dekan va dekan o‘rinbosarlari, tyutorlar va talabalari Samarqand shahrida joylashgan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kichik mutaxassislarni tayyorlash Markaziga tashrif buyurishdi.

Universitet jamoasi harbiy xizmatchilarni bayram bilan tabriklab, ularga yaratilgan shart-sharoitlar va mashg‘ulot jarayonlari bilan yaqindan tanishdilar.

SamDTU 1-son Davolash ishi fakulteti dekan o‘rinbosari M.Zaripov

TALABALARGAIMPLANTOLOGIYABO‘YICHA AMALIY “MASTER-KLASS” O‘TKAZILDI

Universitetda “Og‘iz bo‘shlig‘i jarrohligi va dental implantologiya” kafedrasida talabalar “master-klass” tashkil etildi.

Talabalar o‘zlarini ma’ruzalar orqali olgan bilimlarini amaliy jihatdan sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Vrach-implantolog Ulug‘bek Nuritdinov talabalarga suyak tiplarini hamda implant ekish bosqichlarini ko‘rsatib o‘tdi. Shundan so‘ng har bir talaba pastki jag‘ mulyajlari va suyak tiplarini aniqlaydigan model va implant o‘rnatuvchi uskunalar yordamida dental implantlarni o‘rnatish jarayonini shaxsan amalga oshirdi.

Tashkil etilgan amaliy dars talabalar uchun olgan nazariy bilimlarni mustahkamlash va kelajakda yaxshi mutaxassislar bo‘lishga xizmat qiladi.

SAMDTU TALABALARI – DAVLAT NOMDOR STIPENDIYALARI SOHIBLARI!

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 19 dekabrdagi buyrug‘iga muvofiq respublika OTMlari bakalavriat bosqichi talabalariga Davlat nomdor stipendiyalari berildi.

Mazkur hujjatga muvofiq Samarqand davlat tibbiyot universitetining quyidagi talabalari Davlat nomdor stipendiyalariga muvofiq deb topildilar:

Pediatriya fakulteti 6-bosqich talabasi Atoyev To‘lqin Tolmasovich 2022/2023 o‘quv yili uchun bakalavriat bosqichida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasiga sazovor bo‘ldi;

2022/2023 o‘quv yili uchun ***2-son Davolash fakulteti 5-bosqich talabalari Shavazi Ramiz Nuraliyevich***, ***Ibragimov Sherzod Umidovichlar*** Ibn Sino nomli davlat stipendiyasi sohibi bo‘ldilar;

2-son Davolash fakulteti 5-bosqich talabasi G‘aniyeva Aziza Burxonboy qizi Islom Karimov nomli Davlat stipendiyasi loyiq deb topildi.

Yuqori natijalar bilan talabalarimizni tabriklaymiz va yangi omadlar tilab qolamiz!

SamDTU matbuot xizmati

E’lon

YUNESKOning Osiyo va Tinch okeani mintaqaviy ta’lim byurosi «Wenhui» mukofotiga tanlov e’loni!

YUNESKOning Osiyo va Tinch okeani mintaqaviy ta’lim byurosi 2022-yil uchun «Ta’limni qayta tiklash uchun ta’lim innovatsiyalari» mavzusida «Wenhui» mukofotiga tanlov e’lon qildi.

Mukofotga nomzodlik shaklini to‘ldirishda quyidagi hujjatlarga e’tiborli bo‘lish zarur:

Konsepsiya; Nomzodlik shakli; Innovatsiyalar xulosasi uchun shakl; Tez-tez so‘raladigan savollar.

Bundan tashqari, mukofotga da’vogarlik qilayotgan nomzod quyidagi mezonlarga mos kelishi lozim:

- Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi YUNESKOga a’zo davlatlar fuqarolari bo‘lishi;
- XXI asrda ta’lim sohasidagi ilg‘or tajribalarga mos keladigan hamda ta’lim sifatini yaxshilashga qaratilgan innovatsion amaliyotlar ishlab chiqqan va joriy qilgan bo‘lishi;
- Nomzodlarning innovatsiyalari Osiyo va Tinch okeani mintaqasida ta’lim imkoniyatlari va sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi;
- Ta’limni ommalashtirish, ta’lim sifatini oshirish va ta’limni rag‘batlantirishga qat’iyatli munosabatda bo‘lishi kerak.

Ariza beruvchilar barcha talab qilinadigan materiallarni «Wenhui» mukofoti kotibiyati elektron manziliga (Wenhui.Award@unesco.org) 2023-yil 27-yanvarga qadar (Bangkok vaqti (UTC+7) taqdim etishlari lozim.

Tanlov to‘g‘risidagi to‘liq ma’lumotni quyidagi veb-sahifa orqali olishingiz mumkin: https://bangkok.unesco.org/content/wenhui-award-2022-call- applications-nominations-educational-innovations-learning-recovery-unesco.

Shuningdek, to‘liq ma’lumot quyidagi ijtimoiy tarmoqlardagi havolalarda mavjud: https://facebook.eom/unescobangkok/posts/pfbid034oCqWVL8JJt8M44D8OULLc DBw hamda https://twitter.com/unescobangkok/status/1585904282939052032

Xalqaro hamkorlik bo‘limi.

SAMDTU QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

2-son Davolash fakulteti

1-son ichki kasalliklar kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

2-son Akusherlik va ginekologiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

3-son Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

Nurli diagnostika va terapiya kafedrasi, stajer-assistent lavozimiga - 1 o'rin;

Tibbiy pedagogika va oliy hamshiralik ishi fakulteti

Tibbiy reabilitatsiya, sport tibbiyoti va xalq tabobati kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

Klinik laborator diagnostikasi va DKTF klinik laborator diagnostikasi kursi bilan kafedrasi, assistent lavozimiga - 2 o'rin;

Tillar kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

Fizika, biofizika va tibbiy fizika kafedrasi, stajer-assistent lavozimiga - 1 o'rin;

Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakulteti

Gigiyena kafedrasi, stajer-assistent lavozimiga - 1 o'rin;

Stomatologiya fakulteti

Bolalar stomatologiya kafedrasi, stajer-assistent lavozimiga - 2 o'rin.

SamDTU ilmiy kotibi

Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Katta o'qituvchi yoki **Assistent o'qituvchi** lavozimini egallash uchun tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

Hujjatlar e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.

SamDTU Farmatsiya fakultetining Biologik kimyo kafedrasida 2023-yil 2-fevral kuni soat 8:00 da Tibbiy biokimyo fanidan Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakultetining 401-403 guruh talabalari ucun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Lipidlar almashinuvi patologiyasi".

Ma'ruzachi: T.f.n., dotsent Q.M.Xalikov.

Manzil: SamDTU yangi o'quv binosi, 14-xona, Biologik kimyo kafedrasi ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakultetinig 401-403 guruh talabalari, magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: T.f.n., dotsent Q.M.Xalikov.

SamDTU Stomatologiya fakultetinig Terapevtik stomatologiya kafedrasida 2023-yil 6-fevral kuni soat 11:00 da Og'iz bo'shlig'i shilliq parda kasalliklari fanidan Stomatologiya fakultetinig 501, 502, 503, 504, 505-guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Asab tizimi kasalliklarida og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining o'zgarishlari. Klinikasi, tashxisi, davolash, profilaktikasi."

Ma'ruzachi: T.f.d., professor T.E.Zoyirov.

Manzil: Terapevtik stomatologiya kafedrasi ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Stomatologiya fakultetining 501, 502, 503, 504, 505-guruh talabalari, magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: T.f.d., professor T.E.Zoyirov.

SamDTU 1-son Davolash fakultetining Urologiya kafedrasida 2023-yil 6-fevral kuni soat 11:00 da Urologiya fanidan Pediatiriya fakultetining 501, 502, 503, 504, 505-guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Bolalarda buyrak va siydik ajratish tizimi rivojlanish nuqsonlari" taktikasi."

Ma'ruzachi: T.f.d., professor S.A.Allazov.

Manzil: Urologiya kafedrasi ma'ruzalar zali

Taklif qilinganlar: Pediatiriya fakultetining 501, 502, 503, 504, 505-guruh talabalari, klinik ordinatorlar, magistrlar, kafedra assistentlari, bo'lim vrachlari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: T.f.n., dotsent Z.P.Shodmonova.

SamDTU Stomatologiya fakultetinig Terapevtik stomatologiya kafedrasida 2023-yil 13-fevral kuni soat 11:00 da Paradontalogiya fanidan Stomatologiya fakultetinig 417, 418, 419, 420-guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Paradont to'qimasining patalogiyasi bor bemorlarni asosiy va qo'shimcha tekshirish usullari."

Ma'ruzachi: Assistent N.I.Abdullayeva.

Manzil: Stomatologiya fakulteti Terapevtik stomatologiya kafedrasi ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Stomatologiya fakultetinig 417, 418, 419, 420-guruh talabalari, magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: T.f.d., professor T.E.Zoyirov.

SamDTU Stomatologiya fakultetining 1-son Otorinolaringologiya kafedrasida 2023-yil 6-fevral kuni soat 08:00 da Otorinolaringologiya fanidan stomatologiya fakultetining 425-428 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Labirintitlar va otogen miya ichi asoratlari, zamonaviy tekshirish usullari, davolash principlari".

Ma'ruzachi: T.f.d., professor N.J.Xushvakova.

Manzil: 1-son Otorinolaringologiya kafedrasi ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Stomatologiya fakultetinig 425-428 guruh talabalari, magistr va klinik ordinatorlar, barcha tinglovchilar.

Kafedra mudiri: T.f.d., professor N.J.Xushvakova.

SamDTU Pediatriya fakultetinig 1-son Pediatriya va neonatologiya kafedrasida 2023-yil 6-fevral kuni soat 11:10 da Neonatologiya fanidan Pediatriya fakultetinig 516, 517, 518, 519, 520-guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda tug'ma va orttirilgan sariqliklari. Qiyosiy tashhisot."

Ma'ruzachi: PhD., assistent X.N.Sirojiddinova.

Manzil: 1-son Pediatriya va neonatologiya kafedrasining ma'ruzalar zali. Biokimyo korpusi 2-qavat.

Taklif qilinganlar: Pediatriya fakultetinig 516, 517, 518, 519, 520-guruh talabalari, magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: T.f.d., professor N.M.Shavazi.

SamDTU 1-son Davolash fakultetining Pediatriya kafedrasida 2023-yil 8-fevral kuni soat 10:05 da Pediatriya fanidan 2-Davolash fakultetining 401, 402, 403, 404, 405-guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Bolalarda o'tkir va surunkali glomerulonefritning kechish xususiyatlari, simptomatologiyasi va davolash taktikasi".

Ma'ruzachi: T.f.n., dotsent G.D.Ishkabulova.

Manzil: Pediatriya kafedrasi ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Pediatriya fakultetining 401, 402, 403, 404, 405-guruh talabalari, kafedra assistentlari, bo'lim vrachlari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: T.f.n., dotsent L.M.Garifulina.

SamDTU Tibbiy pedagogika fakultetining 3-Ichki kasalliklar kafedrasida 2023-yil 24-fevral kuni soat 11:10 da Ichki kasalliklar fanidan 2-son Davolash fakultetining 3-bosqich talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "O'tkir revmatik isitma. Kasallikning etiologiyasi, tasnifi, klinikasi. Tekshirish uslublarini o'rganish. Davolash prinsipi va profilaktikasi".

Ma'ruzachi: PhD., assistent U.S.Pulatov.

Manzil: 3-Ichki kasalliklar kafedrasi ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Davolash fakultetinig 3-bosqich talabalari, magistr va klinik ordinatorlar, barcha tinglovchilar.

Kafedra mudiri: T.f.d., professor G.Z.Shodikulova.

Tahririyat raisi: J.A. RIZAYEV

Bosh muharrir: E.S. TANGIROV

Tahrir hay'ati: G'.U.Lutfullayev, S.A.Karabayev, A.A.Axmedov, J.F.Kadirov, B.E.To'xtarov, F.A.Daminov, S.E.Mamaradjabov, N.M. Shavazi, O.A.Xamidov

SHIFOKOR SO`ZI

Nashr uchun mas'ul: O. Muratov

Operator va sahifalovchi: A. Amonov

Fotomuxbir: O.Axmedov

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro`yxatga olingan. INDEKS: 5539

Gazeta har oyda bir marta to`liq rangli shaklda chop etiladi va bepul tarqatiladi

MANZIL: Samarqand shahri, Amir Temur ko`chasi 18-uy.
Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75
e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta SamDTU bosmaxonasida, ofset usulida chop etiladi.
Nashrga ruxsat berildi: 2023 yil, 25 yanvar. Adadi 200 nusxa. Buyurtma: 11